

2021
1(1)



ISSN 2181-2551
E-ISSN 2181-2561

IQTISODIYOT VA TURIZM
xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali

ЭКОНОМИКА И ТУРИЗМ
международный научно-
инновационный журнал

ECONOMICS AND TOURISM
international scientific and
innovative journal

ISSN 2181-2551



9 772181 255890

E-ISSN 2181-2561



9 772181 256001



ISSN 2181-2551
E-ISSN 2181-256X

"IQTISODIYOT VA TURIZM"
xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali

«ЭКОНОМИКА И ТУРИЗМ»
международный научно- инновационной журнал

"ECONOMICS AND TOURISM"
international scientific and innovative journal

№1(1) 2021



Jurnal haqida

"Iqtisodiyot va turizm" xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali

"Iqtisodiyot va turizm" xalqaro ilmiy-innovatsion jurnaliga taqdim etilgan ilmiy maqolalarga qo'yiladigan asosiy talablar falsafa doktori (PhD), fan doktori (DSc) dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini xalqaro standartlar va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida "Oliy attestatsiya komissiyasi to'g'risidagi Nizom" talablari, shu jumladan elektron ilmiy-texnik jurnallarga qo'yiladigan talablar tizimi hisoblanadi.

«Экономика и туризм» международный научно- инновационной журнал

Основные требования к научным статьям, представляемым в международном научно-инновационном журнале «Экономика и туризм» являются научные труды, рекомендованные для публикации основных научных результатов докторских (PhD), (DSc) диссертаций в соответствии с международными стандартами и «Положением о Высшей аттестационной комиссии» при Кабинете Министров Республики Узбекистан, в частности требования к электронным научно-техническим журналам.

About the magazine

"Economics and Tourism" international scientific and innovative journal

The main requirements for scientific articles submitted to the international scientific and innovative journal "Economics and Tourism" are scientific publications recommended for the publication of the main scientific results of doctoral (PhD), (DSc) dissertations in accordance with international standards and the "Regulation on the Higher Attestation Commission" Under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan, including from templates in the system of requirements for electronic scientific and technical journals.



EDITORIAL BOARD

Chairman of the Editorial Board

Navruz-Zoda Bakhtiyor Negmatovich

Bukhara State University Professor Doctor of Economical sciences (DSc)

Vise-Chairman of the Editorial Board

Khamraev Khalim Razikovich

Bukhara State University Docent Doctor of economical sciences

Main editor

Khidirova Gavkhar Rustamovna

Bukhara State University Docent Doctor of philosophy (PhD) Economical sciences

Members of editorial board

Khamidov Obidjon Khafizovich

Bukhara State University Professor Doctor of Economical sciences (DSc)

Akhmedov Tursun Mukhitovich

Institute of forecasting and macroeconomic researcher (IFMR) Deputy director professor, Doctor of Economic Sciences (DSc)

Yuldashev Shuxrat Ganievich

National university of Uzbekistan professor Doctor of economic science

Pardaev Mamayunus Karshibaevich

Samarkand Institute of Economics and Service Professor Doctor of economics

Djavlonbek Kadirov

Place of work: Victoria University of Wellington PhD in Marketing

Khazhimov Pazliddin Zukurovich

National university of Uzbekistan Docent Doctor of philosophy (PhD) of Economic sciences

Abdullaev Ilyos Sultanovich

Urgench State University professor Doctor of economic sciences

Alimova Mashhura Toirxonovna

Samarkand Institute of Economics and Service Professor of the Department of Management DSc in Economics

Kakhkhorov Otabek Siddikovich

Bukhara State University Vice-rector on scientific researches and innovation Doctor of Economical sciences (DSc)

Juraev Abror Turobovich

Bukhara State University Vice-rector for International Cooperation Candidate of economic sciences

Yavmutov Dilshod Shoyimardonkulovich

Bukhara State University Docent Doctor of philosophy (PhD) Economical sciences

Tadjieva Sayyorakhon Uralovna

Bukhara State University Head of the Department Candidate of economic sciences

Responsible editor: Gavhar Xidirova

Web-administrator: Erkin Farmonov



MUNDARIJA

Khamidov O.Kh., Khayrullaeva N.N. Improving management mechanisms for ecotourism in Uzbekistan	5
Навруз-Зода Б.Н. Камбағалликни камайтиришнинг моноиқтисодий йўли.....	20
Ахмедов Т.М. Узбекистан в системе глобального рейтинга ЦУР	35
Эгамбердиев Ф.Т., Махмудов М.М. Минтақалар туризмни ривожлантиришда хорижий мамлакатлар тажрибалари	39
Хамроев Ҳ.Р. “Шоҳрах”дан унумли фойдаланиш имкониятлари.....	49
Khoshimov P.Z., Khushvaktova H.O. Investment in human capital as a factor of innovative economic development.....	57
Дилшод Худайберганов, Бехзод Қўзибоев, Оғабек Самандаров, Оғабек Тураев. Минтақада туризм потенциални оширишнинг ўзига хос хусусиятлари	66
Исомов Б.С. Реальные инвестиции и инвестирование в условиях рыночных отношений.....	74
Tadjiyeva S.U. Ta’lim tizimida masofaviy texnologiyalarni qo’llash yo’nalishlari.....	84
Mukhriddin Kilichov, Teruel Serrano Maria Dolores. Sustainable heritage tourism development research model at heritage resources	90
Хидирова Г.Р. Ички туризм – инсон маънавиятини юксалтиришнинг муҳим омили сифатида	98
“Iqtisodiyot va turizm” jurnali uchun maqolalarni rasmiylashtirish talablari	104

**TA'LIM TIZIMIDA MASOFAVIY TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH
YO'NALISHLARI**

Tadjiyeva Sayyoraxon Uralovna,
dotsent, i.f.n.,
Buxoro davlat universiteti,
tel: +998906110928

Annotatsiya. Maqolada Global pandemiya sharoitida ta'lim tizimiga masofaviy texnologiyalarni qo'llanilishi o'rganilgan bo'lib, zamonaviy ta'lim tizimida ularning o'rni va roli aniqlangan. Shuningdek, O'zbekistonda pandemiya sharoitida oliy ta'lim tizimiga masofaviy texnologiyalarni qo'llash yo'nalishlari tahlil qilinib, tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlari: online ta'lim, masofaviy texnologiyalar, pandemiya, axborot, videokonferentsiya, Internet.

Kirish. Yurtimizda kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy jarayonlardagi bugungi islohotlarning borishi ta'lim tizimini ham tubdan isloh qilishni taqozo etmoqda. Chunki, har bir jabhaning taraqqiyoti o'sha soha mutaxassislarining bilimi, idroki, tafakkuri va malakasi, dunyodagi shu yo'nalishning rivojlanish tendentsiyalarini qanchalik o'zlashtirganligi bilan belgilanadi.

Barchamizga ma'lumki, bugungi kunda butun insoniyatni tashvishga solgan, odamlarning uydan chiqmasliklariga majbur qilayotgan, shu bilan bir qatorda butun dunyoda yangi iqtisodiy inqirozni vujudga keltirayotgan "Covid-2019" pandemiyasi ta'limning barcha turdagi tizimida tahsil olayotgan o'quvchi-yoshlar va talabalarni ham muddatidan oldin ta'tilga chiqishiga sabab bo'ldi.

COVID-19 koronavirus pandemiyasi ta'lim tizimiga masofaviy texnologiyalarni joriy etishni katalizatori bo'ldi. Ta'lim muassasalari o'quv jarayonini masofaviy shaklga to'liq o'tkazishga harakat qilishdi. Shunday qilib, jamiyat rivojlanish tendentsiyalari, hukumat siyosati va pandemiya avj olishi masofaviy ta'limda raqamli vositalarini qo'llanilishini dolzarbligini belgiladi.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda. Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko'p mablag' va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Biroq, qanchalik qiyin bo'lmasin, bu ishga bugun kirishmasak, qachon kirishamiz?! Ertaga juda kech bo'ladi" [1].

Shu jihatdan, mamlakatimiz oliy o'quv yurtlarining bosh vazifasi yuqori ko'nikmalarga va zamonaviy dunyoqarashga ega bo'lgan, vatan ravnaqi va xalq farovonligi yo'lida qamichdan bel bog'lab xizmat qiladigan kasbi komil mutaxassislarni tayyorlashdan iborat ekanligini inobatga olib, bugungi "Pandemiya" sharoitida talabalarni masofadan turib onlayn o'qishlarini yo'lga qo'yish va tashkil etishni taqozo etmoqda. Buning uchun esa, raqamli texnologiyalardan foydalangan holda masofaviy ta'lim platformalarini ishlab chiqishni, professor-o'qituvchilar va talabalar o'rtasida bevosita onlayn muloqot qilishni va shu asnodan talabalarni mustaqil ta'lim bilan qamrab olishni talab etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Global pandemiya sharoitida ta'lim tizimiga masofaviy texnologiyalarni qo'llanilishi, innovatsion pedagogik texnologiyalar, ta'lim tizimida raqamli transformatsiya masalalariga o'z hissasini qo'shgan o'zbekistonlik olimlardan Gulyamov S.S., Shodiyev T., Ishmuxamedov R.J., Zhukovskaya I.E., Abdullayev M.K., Maxkamova M.A. va boshqalarning fan sohasida erishgan yutuqlari, ilmiy ishlari, darslik va o'quv qo'llanmalaridan foydalanildi. Ta'lim tizimida masofaviy texnologiyalarni qo'llash yo'nalishlarini tahlil qilishda rossiyalik olimlar – Nadeeva M.I., Xusyainov T.M., Sharonin Yu.V., Petrova N.P., Kozlova N.S.H.; xorijlik olimlar – L. Sherry, A. Barron, P. Jandrić, T. Bates, M. Crow, M. Peters, E. H. Spafford, J. Knox, T. Besley, T. Ryberg, J. Suoranta, Z. Yin, X. Gong, P. Guo, T. Wu, S. Hayeslar tomonidan yaratilgan fanga doir adabiyotlar bilan tanishildi va, shuningdek, internet saytlaridan olingan

ma'lumotlarga murojaat qilindi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotni olib borishda analiz va sintez, induksiya va deduksiya, statistika va taqqoslash kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Masofaviy o'qitish texnologiyalari deganda asosan o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasida bilvosita (masofada) o'zaro aloqada bo'lgan axborot va telekommunikatsiya tarmoqlaridan foydalangan holda amalga oshiriladigan ta'lim texnologiyalari tushuniladi.


Zamonaviy tadqiqotchilar masofaviy ta'lim tarixini 4 bosqichlarga [2] bo'lishni taklif qilishadi (1-rasm):

Birinchi bosqich (18-asrdan 20-asrning 60-yillarga qadar) - bu davrda asosan texnologiyaning faqat ayrim turlari ishlatilgan: bosma mahsulotlar va pochta jo'natmalari, radio yoki televizor.

Ikkinchi bosqich (1965 yildan 1980 yilgacha) - bu davrda masofaviy o'qitishni amalga oshirish uchun kompyuterlarsiz bir nechta texnologiyalar qo'llaniladi, axborot uzatishning yangi usullari kiritiladi: audio va video kassetalar, fakslar va boshqalar.

Uchinchi bosqich (1980 yildan 1995 yilgacha) - masofadan o'qitishning ushbu davri kompyuter texnologiyalari va Internet texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) paydo bo'lishi bilan bog'liq. Shu tufayli asosiy mashg'ulotlardan "uzilishlarsiz" o'qish va masofadan turib o'qish uchun butun dunyodan ko'proq talabalarni jalb qilish imkoniyati paydo bo'ldi.

To'rtinchi bosqich (1995 yildan to hozirgi kungacha) o'tgan avlodlarning ikkala texnologiyasini o'z ichiga oladi va yuqori o'tkazuvchanlik qobiliyatiga ega kompyuter texnologiyalarini, shuningdek, videokonferentsiyalar va veb-seminarlar kabi yuqori darajadagi telepresensiyani o'z ichiga oladi.



1-rasm. Masofaviy ta'limni rivojlanish bosqichlari

Masofaviy texnologiyalarning zamonaviy shakllari qo'yidagilar (2-rasm):

Videokonferentsiya (ovoz bilan birga video almashinish):

- O'qituvchi va talabalar o'rtasida ikki tomonlama audio va video aloqalarni ta'minlaydi;
- Asosiy afzallik - bu real vaqtda vizual aloqaning mavjudligi. O'qituvchi talabani ko'rib, mavzuni tushunish darajasini nazorat qilishi, savollar berish va imo-ishora tilini kuzatish orqali qiziqishini sozlashi mumkin;
- Videokonferentsiyalar o'quv jarayonining eng ko'p ishtirokchilarini qamrab oladi;
- Kamchilik - bu nisbatan yuqori xarajatlarni talab qiladi.

Audio konferentsiyalar (raqamli va analog aloqa vositalarida ovozli ma'lumot almashish):

- Ishtirokchilar telefon yoki ovozli aloqa uchun maxsus ishlab chiqarilgan uskunalardan foydalanadigan elektron konferentsiyaning turi;
- Bunday muloqot sessiyalari talaba bilan yakka tartibda o'tkazilishi va talabalar guruhi bilan ishlashda ishlatilishi mumkin;
- Masofaviy ta'limning ushbu turidan seminarlar va ma'ruzalarni tashkil qilish uchun foydalanish mumkin.

Kompyuter telekonferentsiyasi (bu videokonferentsiya yuqori tezlikdagi Internetga ulangan va mikrofonlar va raqamli videokameralar bilan jihozlangan kompyuterlar yordamida amalga oshirildi).

- Asosiy kamchiliklar - ayrim hududlarda har doim ham texnik ta'minlanib bo'lmaydigan Internetga ulanish tezligining majburiy mavjudligi va maxsus uskunalarni sotib olish zarurati;
- Bu, ayniqsa, talabalarning jamoaviy ishlarini tashkil qilishda, shuningdek rolli o'yinlar va intellektual musobaqalar uchun masofaviy o'qitish usullaridan foydalanilganda samarali bo'ladi.

Video ma'ruza (ma'ruzachi nutqining yozuvi ekranda translyatsiya qilinadi, ba'zida u avatar (virtual dubl) bilan almashtiriladi, o'qituvchining yozma materialini ovozi bilan).

- Yodda saqlash tezligi eng samarali bo'lganligi sababli dinamik tasvirga ega bo'lgan video ma'ruzalar tan olingan: film fragmentlari, animatsiya, jadvallar. Namoyish o'qituvchining ovozli sharhlari bilan birga keladi.
- O'quv materialini taqdim etishning ushbu shaklining an'anaviy oflayn "o'qish" dan afzalligi shundaki, talaba video ma'ruza kursini mustaqil ravishda sozlashi, oldingi bo'limlarga va qiyin daqiqalarga xohlaganicha qaytishi mumkin.



2-rasm. Masofaviy o'qitishning zamonaviy shakllari

Chat seanslari (chatlar yordamida olib boriladigan darslar - elektron aloqa tizimi).

- Haqiqiy vaqtda Internetga ulangan ikki yoki undan ortiq suhbatdoshlar kompyuterdan yuborilgan matnli xabarlarini almashadilar, ularni guruhning barcha a'zolari ko'rishadi.

Veb-darslar (masofaviy seminarlar, konferentsiyalar va boshqa turdagi ta'lim faoliyati telekommunikatsiya va boshqa Internet-resurslardan foydalangan holda amalga oshiriladi).

- Odatda forumlar veb-darslarni tashkil qilish uchun ishlatiladi. Ular ma'lum bir mavzuni o'rganish, muammoni tahlil qilish bo'yicha talabalarning birgalikdagi ish turlaridan birini

ifodalaydi. Muhokama davomida talabalar saytda yozuvlar yozadilar, kursning qolgan ishtirokchilari o'qishlari va sharhlashlari mumkin.

- Veb-darslarning katta plyusi - bu talabalar va o'qituvchilar o'rtasida ko'p kunlik (nafaqat qisqa muddatli aloqa sessiyasida) muloqot qilish imkoniyati va o'zaro ta'sirning asinxron xarakteri: saytdagi yozuvlarni istalgan vaqtda o'qish va qoldirish mumkin.

Radio va telekommunikatsiya texnikasi (radio aloqa, televizion kanallar)

- Radio aloqa - bu masofadan o'qitishning an'anaviy shakli bo'lib, u hozirgi kunda yagona ma'lumot almashish kanali sifatida emas, balki boshqa shakllar bilan birgalikda qo'llanilmoqda.
- Radio eshittirishlarning afzalliklari - ularning keng auditoriya uchun mavjudligi.
- Kamchilik - o'qish uchun motivatsiyani kafolatlay olmaydi va talabaning o'zini o'zi yuqori darajada tashkil etishni talab qiladi.
- Biroq, talaba yoki tinglovchilar bilan ko'z aloqasi radio eshittirishlarga qaraganda samaraliroq.

Dunyoning ko'pgina mamlakatlari va mintaqalariga tarqalgan COVID-19 pandemiyasi global iqtisodiyotga jiddiy ta'sir ko'rsatdi: ayrim yirik sanoat korxonalarini va kichik biznes tashkilotlari faoliyatlarini vaqtincha to'xtatishga, ko'plab xodimlar masofadan ishlashga, maktablar va universitetlar onlayn ta'limga o'tishga majbur bo'lishdi.

Raqamlashtirish jarayonini ancha avval boshlangan mamlakatlarda pandemiya raqamli iqtisodiyotni, raqamli texnologiyalarni, elektron tijoratni rivojlantirishni, shuningdek, yetkazib berish xizmatlari va logistikani modernizatsiya qilishni jadallashtirdi. Mazkur soha nisbatan yaxshi rivojlanmagan mamlakatlarda ham pandemiya raqamlashtirishga bo'lgan ehtiyojni va talabni oshirib, ushbu jarayonlarni tezlashtirdi hamda yangi sharoitlarga moslashishni taqazo qildi.

Ko'plab mamlakatlar singari O'zbekistonda ham barcha sanoat tarmoqlarini faol ravishda raqamlashtirish jarayonlari yo'lga qo'yilgan. Joriy yilga kelib O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi axborot xizmati bergan ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatda internetdan foydalanuvchilar soni 22 millionga, shu jumladan, mobil` internet foydalanuvchilari 19 million nafarga yetgan [3]. Shuningdek, Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2020 yil 1 oktyabr` holatiga ko'ra, mobil` aloqa tizimiga ulangan abonentlar soni 24 mln. 824,3 mingtani tashkil etib, 2019 yilning mos davriga nisbatan 6,9 % ga yoki 1 mln. 598,1 mingtaga o'sgan[4]. Shu bilan birga, 2019 yilda ish bilan band bo'lgan aholi orasida axborot texnologiyalari bo'yicha mutaxassislarining ulushi 0,5 foizni tashkil etgan bo'lib, ushbu ko'rsatgich Yevropa Ittifoqi mamlakatlari (3,7 foiz) o'rtacha ko'rsatkichidan deyarli yetti baravar pastroq ekanligini ko'rsatdi. Shunga qaramay, O'zbekistonda axborot texnologiyalari bo'yicha mutaxassislarga talab tez o'sib bormoqda.

O'zbekistonda aholi hali ham global tarmoqqa ulanish bilan bog'liq qiyinchiliklarni boshdan kechirmoqda. Aholining taxminan uchdan bir qismi hali ham Internetga ega emas. Shu bilan birga, mamlakat fuqarolarining deyarli 50% qishloq joylarda yashagani sababli sifatli va arzon Internet aloqaga ega emas. 2020 yil mart oyidan boshlab mamlakat mobil Internet tezligi bo'yicha dunyoda 122-o'rinni va belgilangan keng polosali tezligi bo'yicha 94-o'rinni egallab turibdi [5].

Masofaviy ta'lim uchta asosiy omil: Moodle ta'lim platformasi, Zoom dasturi va Telegram messenjerini qo'llash orqali mumkin bo'ldi.

Moodle — kurslarni boshqarish tizimi (elektron ta'lim), shuningdek, ta'limni boshqarish tizimi yoki [virtual ta'lim muhiti](#) sifatida mashhur. [Ingliz tilidagi Modular Object-Oriented Dynamic Learning Environment](#) (obyektga yo'naltirilgan modulli dinamik o'qitish muhiti) so'zlarining qisqartmasi. Onlayn ta'lim uchun saytlar yaratish imkonini beruvchi ochiq ([GNU GPL](#) litsenziyasi asosida tarqatiladigan) [webdastur](#) hisoblanadi [6].

Moodle (modulli ob'ektga yo'naltirilgan dinamik ta'lim muhiti) - bu o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tashkil etishga qaratilgan bepul ta'limni boshqarish tizimi, garchi u an'anaviy masofaviy kurslarni tashkil qilish uchun ham, kunduzgi o'qishni qo'llab-quvvatlasa ham.

Moodle-dan foydalanib o'qituvchi kurslar tuzishi, ularni matnlar, yordamchi fayllar, taqdimotlar, so'rovnomalar va boshqalar ko'rinishidagi tarkib bilan to'ldirishi mumkin. Moodle-dan foydalanish uchun har qanday veb-brauzer bo'lishi kifoya, bu esa ushbu o'quv muhitidan foydalanishni o'qituvchi uchun ham, o'quvchilar uchun ham qulay qiladi. O'quvchilar topshiriqlarni bajarish natijalariga ko'ra o'qituvchi baho qo'yishi va izoh berishi mumkin. Shunday qilib, Moodle, shuningdek, o'quv materialini yaratish va o'quv jarayoni ishtirokchilari o'rtasida interfaol o'zaro aloqani ta'minlovchi markazdir.

2020/21-o'quv yilidan boshlab O'zbekiston Respublikasi OTMlari HEMIS tizimiga o'tishni boshladi. Bugungi kunda ushbu tizimga 129ta OTM, 765ta fakul'tet, 26368 nafar o'qituvchi va 547812 nafar talabaga kiritilgan bo'lib, HEMIS axborot tizimi oliy ta'lim muassasalarining asosiy faoliyatlarini avtomatlashtirish hisobiga ma'muriy xodimlar, professor-o'qituvchilar va talabalarga elektron ta'lim xizmatlarini taqdim etadi. Axborot tizimi oliy ta'lim muassasalari bilan Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi o'rtasida axborot ko'prigi vazifasini o'taydi hamda oliy ta'lim muassasalaridan olinadigan turli xil ma'lumotlar sonini keskin kamaytirish, ularning qog'oz shaklidan voz kechish va boshqaruv tizimini raqamlashtirishga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar.

1. Global pandemiya sharoitida onlayn ta'lim mazkur tizimni rivojlantirishga xizmat qildi;
2. Ta'lim muassasalari online o'quv rejimiga o'tgani sababli o'qituvchilar masofaviy ta'lim berish (Moodle), onlayn rejimda, turli platformalarda (ZOOM, Telegram) ma'ruza o'tish va videodarslar yozish (Bandicam, OBS-studio) ko'nikmalariga ega bo'lishdi;
3. Karantin talabalarda XXI asr mutaxassisi uchun kerak bo'lgan moslashuvchan ko'nikmalarining rivojlanishini tezlashtirdi;
4. Respublika oliy ta'lim muassasalarining xorijiy universitetlar bilan hamkorligi faollashdi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 25.01.2020.
2. History of Distance Education. (URL: <http://mysite.du.edu/~kkeairns/de/Text/Lessons/Lesson1.pdf>).
3. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi. (2020). *Telekommunikatsiya tuzilmasi*. <https://mitc.uz/uz/pages/communication>
4. Xalq so'zi. (2020, Noyabr 11). O'zbekistondagi mobil aloqa abonentlari soni 25 millionga yaqinlashdi. <https://xs.uz/uz/post/ozbekistondagi-mobil-alloqa-abonentlari-soni-25-millionga-yaqinlashdi>.
5. <https://www.speedtest.net/global-index/uzbekistan>
6. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Moodle>
7. Shadiev T. Effects of the Global Crisis on the Economy of Uzbekistan During the Coronavirus Pandemiya and Measures to Ease IT //Journal NX. – T. 6. – №. 05. – C. 277-280.
8. Chung, G. Subramaniam, L. Dass. Online learning readiness among university students in Malaysia amidst Covid-19.// Asian Journal of University Education, 2020. - №16(2), P.45–58.
9. Emon, A.R. Alif, M.S. Islam. Impact of COVID-19on the Institutional Education System and its Associated Students in Bangladesh.// Asian Journal of Education and Social Studies, 2020. – P. 34–46.
10. Kapasia, P. Paul, A. Roy, J. Saha, A. Zaveri, R. Mallick, P. Chou han. Impact of lockdown on learning status of undergraduate and postgraduate students during COVID-19 pandemic in West Bengal, India.// Children and Youth Services Review, 2020. –№ 116, Article 105194. <https://doi.org/10.1016/j.childyouth>
11. Hah, R., & Jiang, Y. (2020, April 3). *How China is using digital and technologies to combat COVID-19*. Retrieved from https://www.accenture.com/_acnmedia/PDF-121/Accenture-How-China-is-Using-Digital-and-Technologies-to-Combat-COVID-19.pdf#zoom=40
12. Yin, Z., Gong, X., Guo, P., & Wu, T. (2019). What drives entrepreneurship in digital economy? Evidence from China. *Economic Modelling*, 82, 66-73.

13. ООН: Концептуальная записка: образование в эпоху Covid-19 и в последующий период/ август 2020.
14. Хусяинов Т.М. История развития и распространения дистанционного образования. "Педагогика и просвещение". 2014. № 4.стр 30-41.
15. Надеева М.И.. Место и роль цифровых технологий в современном образовании.Казанский педагогический журнал №5, 2019, стр 15-18.
16. Jungwoo Lee·Spring H. Han The Future of Service Post-COVID-19 Pandemic, Volume 1. Rapid Adoption of Digital Service Technology, ISSN 2662-4249 (electronic)
17. Makhkamova M. A., Allaeva G. J. Relationship between sustainable development of branches of fuel and energy complex and growth GDP //International Journal of Recent Technology and Engineering. – 2019. – Т. 8. – №. 2. – С. 3760-3763
18. Узбекистан на пути к инновационному развитию / Коллектив авторов, под общ. ред. доктора экономических наук, академика К. Х. Абдурахманова: Монография. — Т.: Ташкентский филиал РЭУ им. Г. В. Плеханова, 2018. — 136 с.
19. Пандемия ва глобал иқтисодий инқироз Ўзбекистон иқтисодиётига қандай таъсир кўрсатади. Т.Шодиев Тошкент халқаро Вестминстр университети хузуридаги ЮНЕСКОнинг Билимлар иқтисодиёти кафедраси мудир, иқтисодиёт фанлари доктори, профессор. Халқ сўзи газетаси . 2020 йил 20 май, 4-бет.
20. Гаджиева С.У. Развитие цифровых технологий в Узбекистане во время глобальной пандемии и современное образование. Наука, образование, инновации: приоритетные направления развития. 2021.- 180-189 сс.

Muassislar:
Buxoro davlat universiteti
“Economic science” mas’uliyati cheklangan jamiyati

**"IQTISODIYOT VA
TURIZM"
xalqaro ilmiy va innovatsion
jurnali**

2021-yil 1-son (1)

**2011-yildan
chiqa boshlagan.**

OBUNA INDEKSI: 200117

**Manzil: Buxoro shahri,
M.Iqbol ko'chasi, 11-uy, 2-bino,
403-xona.**

ilmiy va innovatsion nashri

Jurnal oliy o'quv yurtlarining professor-
o'qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy
xodimlar, magistrantlar, talabalar, akademik
litsey va kasb-hunar kollejlari hamda maktab
o'qituvchilari, shuningdek, keng ommaga
mo'ljallangan.

Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli
maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar,
turli xabarlar chop etiladi.

**Nashr uchun mas'ul:
Gavhar XIDIROVA
Muharrir:
Halim HAMROYEV**

Jurnal tahririyat kompyuterida
sahifalandi. Chop etish sifati uchun
bosmaxona javobgar.

Bosishga ruxsat etildi 20.09.2021
Bosmaxonaga topshirish vaqti
27.08.2021

Qog'oz bichimi: 60x84. 1/8
Tezkor bosma usulda bosildi.
Shartli bosma tabog'i – 20,6
Adadi – 100 nusxa
Buyurtma № 330.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Sadriiddin Salim Buxoriy” MCHJ
bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Buxoro shahri
M.Iqbol ko'chasi 11-uy.